

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
KORPORATIV BOSHQARUV FAKULTETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK:338.24:658.01(575.1)**

**PO‘LATXONOVA SAIDAXON ALISHERXON QIZI**

**ZAMONAVIY MENEJMENT KONSEPSIYALARINI JORIY QILISH  
ASOSIDA KORXONALARNI BOSHQARISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH (MChJ QK “REMEDY GROUP” KORXONASI  
MISOLIDA)**

**70411201 - Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)**

**Magistr**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
professor K.A. Sharipov**

**Toshkent – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tdi.

10 sonli bayonnoma « 18 » 05 2023 y.

Kafedra mudiri: N.Yo'ldoshev

[Signature] 18.05.23  
imzo sana

Ilmiy rahbar: K.Sharipov

[Signature] \_\_\_\_\_  
imzo sana

Magistr: S.Po'latxonova

[Signature] \_\_\_\_\_  
imzo sana

Dissertatsiya Magistratura bo'limida 2023-yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Dissertatsiya ishida zamonaviy menejment konsepsiyalarini joriy qilish asosida korxonalar boshqaruvi tizimini yanada rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari o'rganilgan, sanoat korxonalarida menejment konsepsiyalarini joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan. Dissertatsiya ishida menejment konsepsiyasi tushunchasining mohiyati va funksiyalari, uning tasniflanishi, korxonada boshqaruvida zamonaviy menejment konsepsiyalarini joriy qilishning ahamiyati va uning samaradorligini baholash, QK "REMEDY GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyatining boshqaruv jarayoniga aloqador bo'lgan bir qator asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan va taklif hamda tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *tashkilot, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, konsepsiya, paradigma, natural xo'jalik, sotsialistik konsepsiya, iqtisodiy erkinlashtirish, ayirboshlash, jamoat boyligi konsepsiyasi, tabiiy tartib konsepsiyasi, sarf-xarajat konsepsiyasi, erkin savdo, pulning neytrallik konsepsiyasi, islohotchilik, elektik konsepsiyasiya, jamiyatning rivojlanish konsepsiyasi, bazis va ustqurma to'g'risidagi konsepsiya, ishlab chiqarish bahosi konsepsiyasi, ishlab chiqarish kuchlari, sotsial pluralizm, benuqson tiplar konsepsiyasi, talabning elastikligi (qayishqoqligi), samarali talab, umumiy iqtisodiy muvozanat, siklik rivojlanish, taqsimot konsepsiyasi, neoliberalizm, ishsizlik tabiiy normasi, solishtirma afzallik, neoklassik sintez, mehnat munosabatlari, biregulyator, mehnat taqsimoti, iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, daromadning ko'payishi va insoniy bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi.*

## ANNOTATION

In the dissertation work, theoretical and methodological foundations for the further development of the management system of enterprises are studied based on the introduction of modern management concepts, research on the introduction of management concepts in industrial enterprises is presented. In the dissertation work, the essence and functions of the concept of management, its classification, assessment of the importance of introducing modern management concepts in enterprise management and its effectiveness, a number of key indicators related to the management process of the limited liability company "REMEDY GROUP" have been analyzed and proposed and made recommendations.

**Keywords:** *organization, entrepreneurship support, concept, paradigm, natural business, socialist concept, economic liberalization, exchange, concept of public wealth, concept of natural order, concept of spending, free trade, neutrality of money" concept, concept of reform, electric concept, concept of development of society, concept of basis and superstructure, concept of production assessment, production Forces, social pluralism, Benson Type Concept, elasticity of demand (slip), concept of effective demand, general economic equilibrium, cyclical development, distribution concept, neoliberalism, natural norm of unemployment, comparative advantage, neoclassical synthesis, Labor Relations, biregulator, division of Labor, concept of economic development, increase of income and concept of transition to human market relations.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	8
<b>1- BOB. KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1.    Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2.    Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
1.3.    Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4.    Tadqiqot obyekti va predmeti.....	14
1.5.    Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6.    Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	15
<b>2- BOB.    ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>17</b>
2.1.    Kirish.....	17
2.2.    Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	18
2.3.    Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	30
2.4.    Xulosa.....	36
<b>3- BOB.    METODOLOGIYA.....</b>	<b>38</b>
3.1.    Tadqiqot dizayni.....	38
3.2.    Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	39
3.3.    Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	39
3.4.    Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	39
3.5.    Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	40
3.6.    Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	40
<b>4- BOB.    TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>42</b>
4.1.    MChJ QK “REMEDY GROUP” korxonasi tashkiliy-iqtisodiy va unda menejment konsepsiyalaridan foydalanish holati tahlili.....	42

4.2.	MChJ QK “REMEDY GROUP” korxonasi faoliyatiga menejment konsepsiyalarini joriy etishning xorijiy mamlakatlar tajribalari .....	49
4.3.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	63
<b>5- BOB.</b>	<b>XULOSA.....</b>	<b>71</b>
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	71
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	71
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	73
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>75</b>
	<b>ILOVALAR.....</b>	<b>78</b>

## 1- BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Iqtisodiy globallashtirish sharoitida mamlakatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi va xalqaro ixtisoslashuvning kuchayishi har bir milliy iqtisodiyot oldiga ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning raqobatbardoshligi va sifatini oshirish hamda shu orqali hududlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirish vazifasini qo‘ymoqda.

Bu borada mamlakatimiz rahbarining: “Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, birinchi navbatda, yetakchi sohalar rivojiga bevosita bog‘liqdir. Qaysi sohada yuqori qiymatga ega mahsulot yaratilsa, biz ana shu sohani birinchi navbatda qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuning uchun iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishimiz lozim”,–degan so‘zlari diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi<sup>1</sup>.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, **tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash** va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 28.01.2022-y., №PF-60.